M.S.Ayxodjayeva
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIGA OID ILMIY MATNLARDA ADABIY TIL ME’YORLARINING QO‘LLANISHI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15763086

Annotatsiya. Maqola o‘zbek tilidagi jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid matnlarda adabiy til me‘yorlarining qo‘llanishi masalasiga bag‘ishlangan. Unda o‘zbek adabiy tili me’yorlarining o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqilgan, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport muammolariga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy-nazariy anjumanlar to‘plamlaridagi ayrim tezis va maqolalardan olingan misollar asosida o‘zbek adabiy tili me’yorlaridan chetga chiqish holatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, adabiy til, ona tili, so‘z, nutq, me‘yor, jismoniy tarbiya, sport, soha, tushuncha, nutq, muloqot, fikr, mulohaza, vosita, maqsad, munozara, xususiyat, munosabat.

Kirish

Zamonaviy o‘zbek adabiy tilini yaxshi bilish va unda erkin, savodli so‘zlay olish shu til tashuvchisi umumiy madaniyatining eng muhim qismi, kasbiy malakasining juda zarur bir jihatidir. Bugun yuqori malakali mutaxassis o‘z kasbiga doir kompetensiyalarni chuqur egallabgina qolmay, balki fikrlarini to‘g‘ri va aniq ifodalash, bexato yozish qobiliyati nuqtayi nazaridan ham yuqori darajaga ega bo‘lmog‘i lozim. Garchi xodimlarni ishga qabul qilish jarayonida hozir mas’ullar ko‘proq hollarda ularning rus/ingliz tilini bilishlari bilan qiziqayotgan bo‘lsalar-da, deyarli biror tashkilotda “O‘zbek tilini yaxshi bilasizmi? Ona tilingizda ravon so‘zlaysizmi? Bexato yoza olasizmi?” qabilidagi savollar hech kimga berilmayotgan esa-da, shunday layoqatga ega bo‘lgan xizmatchilar har holda hamma yerda kerak, ularga albatta e’tibor beradilar, odatda, ishga “ko‘mib” qo‘yadilar. Shu munosabat bilan og‘zaki va yozma nutqni takomillashtirish ustida muntazam ishlash har bir shaxsning kasbiy o‘sishi uchun zarur shartlardan biri bo‘lmog‘i kerak. Ammo afsuski, o‘zbek tilidagi jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid ayrim ilmiy matnlarda adabiy til me‘yorlariga doim ham rioya qilinmaydi.

Ishning maqsadi: o‘zbek adabiy tili me’yorlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berish; jismoniy tarbiya va sport sohasida o‘zbek tilida yaratilgan ilmiy ishlar matnlarining tilini til me’yorlarining qo‘llanishi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish va o‘zbek adabiy tili me’yorlariga amal qilinishi darajasini tahlil qilish.

Me’yor tushunchasini odatda adabiy tilda to‘g‘ri, savodli ifodalangan nutq haqidagi tasavvurlar bilan bog‘laydilar, adabiy nutqning o‘zi esa inson umumiy madaniyatining qirralaridan biridir.

Me’yor ijtimoiy-tarixiy va chuqur milliy hodisa sifatida birinchi navbatda adabiy tilni – milliy tilning namunali deb tan olingan shaklini tavsiflaydi. Shuning uchun “til me’yori” va “adabiy me’yor” atamalari, ayniqsa, gap zamonaviy o‘zbek tili xususida ketganda, ko‘pincha birlashtiriladi, ammo tarixan ular bir xil narsa emas.

Til me’yori nutqiy muloqotning real amaliyotida shakllanadi, umumxalq qo‘llanuvida uzus (lotincha usus — foydalanish, iste’mol, odat) sifatida sayqallanadi va mustahkamlanadi; adabiy me’yor ham, shubhasiz, uzusga tayanadi, lekin u yana alohida muhofazalanadi, kodlanadi, ya’ni maxsus ko‘rsatmalar (lug‘atlar, qo‘llanmalar, darsliklar) yordamida qoidalashtiriladi.

Adabiy me’yor ijtimoiy-lisoniy amaliyotda qabul qilingan talaffuz, so‘z qo‘llash, grammatik va uslubiy til vositalaridan foydalanish qoidalaridir. Tilshunoslikda S.I.Ojegovning quyidagi fikri ko‘pchilik tomonidan tan olingan: "Me’yor - tilning jamiyatga xizmat qilish uchun eng mos (“to‘g‘ri”, “afzal”) vositalari majmuyi bo‘lib, u til unsurlarining (leksik, ...,

morfologik, sintaktik) birgalikda "yashab" kelayotgan, mavjud bo'lgan, yangi shakllantirilgan yoki o'tmishning passiv zahirasidan chiqarib olingan shunday unsurlar orasidan keng ma'noda ijtimoiy baholash jarayonida saralanishi natijasida hosil bo'ladi".

Me'yor tarixiy jihatdan o'zgaruvchan, lekin ayni paytda barqarorlik va an'anaviylik xususiyatlariga ega, u yangi so'zlar, boshqa til unsurlarini darrov o'z doirasiga qabul qilib olmaydi. Ma'lum muddat o'tganidan so'nggina ular odat tusiga kirib, ustida muayyan muolajalar bajarilganidan keyin barcha uchun majburiy hisoblanadi.

Og'zaki adabiy me'yorning rivojlanishiga qadimdan xalq qiziqchilari, askiyachilar, ertakchi, latifachi, xalq shoir-baxshilari katta hissa qo'shganlar. Yaqin o'tmishda adabiy me'yorlarning eng obro'li manbayi mumtoz badiiy adabiyot hisoblangan. Hozirgi vaqtda ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio, davriy nashrlar) ularni shakllantirish markaziga aylanib boryapti. Shunga ko'ra, davrning lingvistik didi, natijada adabiy tilning maqomi ham o'zgarmoqda; me'yor tobora demokratlashib, ilgari adabiy bo'lmagan til vositalarini o'z bag'riga ola boshladi. Yaqin kelajakda o'zbek tilining lug'ati risk, diyeta, saxar, dostavka so'zlari hisobiga "boyib" qolsa ajab emas.

Me'yorlar o'zgarishining asosiy sababi – tilning taraqqiy etishi, variantlarning ko'payishi, bu ifoda uchun eng mos, maqsadga muvofiq variantlarning tanlab olinishini ta'minlaydi, zero, me'yoriy til vositasining namunaliligi, andoza bo'lishga munosibligi tushunchalari o'rnini bugungi kunda "maqsadga muvofiqlik" va "qulaylik" sifatlari siqib chiqarmoqda.

K.S.Gorbachevich "Вариантность слова и языковая норма" ("So'zning variantliligi va til me'yori") kitobida me'yorning belgilari haqida batafsil to'xtalib, jumladan, quyidagi asosiylarini qayd etadi: "1) me'yorning barqarorligi, konservativligi; 2) til hodisasining keng tarqalganligi; 3) manbaning obro'si, vakolatliligi". Har bir belgi alohida holda ma'lum bir til hodisasida ishtirok etishi mumkin, lekin buning o 'zi yetarli emas. Til vositasi me'yoriy deb tan olinishi uchun barcha xususiyatlarning uyg'unlashuvi talab qilinadi.

Obyektiv til me'yori o'z-o'zidan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, til vositasining eng qulay, maqsadga mos variantini tanlash yo'li bilan shakllanadi va u keng tarqalib, qo'llana boshlaydi. Ushbu tanlovda qat'iy rioya qilinadigan qoida – bu tilning umumiy tizimiga muvofiqlik. Biroq bunday o'z-o'zidan shakllangan me'yor rasmiy ravishda tan olinishi shart emas, endi me'yorni kodlashtirish, uni rasmiy ko'rsatmalar orqali qoidalashtirish (me'yoriy lug'atlarda, ma'lumotnomalarda va b.da qayd etish) kerak.

Mana shu yerda kodifikatorlar yoki jamoatchilik, ayrim professionallar yoxud adabiyot havaskorlari guruhi tomonidan yangi me'yorlarga ko'rsatiladigan qarshiliklar ko'rinishidagi ba'zi qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Demak, me'yorning kodifikatsiyalanishi normalashtirish faoliyatidir, kodifikatorlar esa nutq amaliyotini kuzatib, tilning o'zida yuzaga kelgan me'yorni qayd etadilar, bunda ular muayyan bir davr uchun eng dolzarb hisoblangan variantga ustunlik beradilar.

O'zbek adabiy tilining me'yorlari ustida ko'plab o'zbek tilshunoslari, jumladan, A.G'ulomov, M.Asqarova, M.Mirtojiyev, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, Y.Tojiyev va boshqalar ishlaganlar.

1. Orfoepik me'yorlarga talaffuz, urg'u va ohang me'yorlari kiradi. Bular zamonaviy o'zbek tilining talaffuz me'yorlari bo'lib, so'z va uning shakllarida urg'uning joylashishini, shuningdek, alohida tovush yoki tovush birikmalarining talaffuzini tartibga soladi. Orfoepik me'yorlarga rioya qilish nutq madaniyatining muhim qismidir, chunki ularning buzilishi tinglovchilarda nutq va so'zlovchining o'zi haqida birmuncha salbiy taassurot qoldiradi, nutq mazmunini idrok etishdan chalg'itadi. Masalan: maktab – maytab, kerak – kerey, tushuntirish – chuntirish, sog'liq – so:lu:, aniq – anu: va boshqalar.

O'zbekcha so'zlardagi urg'u, odatda, bog'liq, ya'ni aksariyat hollarda so'zning

oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Unga qo‘shimcha qo‘shilishi bilan urg‘u ham so‘z oxiriga qarab siljib boraveradi: sportchí – sportchilár – sportchilarím – sportchilarimíz – sportchilarimizgá; tushún – tushungán – tushunganlár – tushunganlarníng kabi. Shuningdek, urg‘usi erkin bo‘lgan, bo‘g‘inlarining biridan ikkinchisiga ko‘chib, ma’no farqlashga xizmat qiladigan so‘zlar ham uchraydi: súzma (taom) – suzmá (buyruq shaklidagi fe’l). Biroq, qayd etish kerakki, bundagi urg‘ular rus tilidagi твóрог – творóг, свёкла – свеклá, дóговор – договóр so‘zlaridagi kabi yaqqol sezilmaydi. O‘zbek tili sohiblari ko‘proq televídeniye (televidéniye), matematík (matemátik), xronologík (xronológik) singari olinma so‘zlarda urg‘uni noto‘g‘ri qo‘llaydilar.

2. Leksik me’yorlar - muloqotning maqsadi va shartlari bilan belgilanadigan so‘z va iboralarning tanlanishini tartibga soluvchi me’yorlar. Ular so‘zning ma’no yoki shakl jihatdan o‘ziga yaqin bo‘lgan birliklar qatoridan tanlanishining to‘g‘riligini, shuningdek, uning adabiy tilda mavjud bo‘lgan ma’nolarida qo‘llanishini belgilaydi. Leksik me’yorlar izohli lug‘atlarda, xorijiy so‘zlar lug‘atlarida, terminologik lug‘atlarda va ma’lumotnomalarda o‘z aksini topadi. Izohli lug‘atdagi ko‘p so‘zlar nafaqat o‘z ma’nosiga, balki ma’lum bir so‘z qanday nutq sharoitida ishlatilishi kerakligini bildiradigan maxsus belgilarga ham ega. Masalan, esk. - eskirgan so‘z yoki so‘zl. - so‘zlashuv uslubi. Shunday qilib, izohli lug‘at bizga so‘zning ma’nosi ma’lum bo‘lgan taqdirda ham, uni qo‘llash doirasini aniqlashtirish kerak bo‘lganda foyda beradi. So‘zning ma’nosini, masalan, paronimlarning mazmunini bilmay ishlatish, shevaga xos so‘zlarni qo‘llash, rus tilidan rasman qabul qilinmagan lug‘aviy birliklardan foydalanish leksik me’yorning qo‘pol buzilishi sanaladi.

Leksik me’yorlarning buzilishi har xil turdagi leksik xatolarga olib keladi (Quyida keltirilgan misollar “Jismoniy tarbiya va sport muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (Qarshi, 2019) hamda “Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid yangi so‘z va atamalarning qo‘llanilishi: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani (Toshkent, 2020) materiallari to‘plamidan olingan):

bir qator birliklar qatoridan so‘zni noto‘g‘ri tanlash, jumladan, paronimlarni aralashtirish, sinonimni noto‘g‘ri tanlash, semantik soha birligini noto‘g‘ri tanlash (jismoniy tarbiya va sport faoliyatida mutaxassis kadrlar tayyorlash, sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishda innovatsion iboralardan maqsadli foydalanish, mashg‘ulotlarni kuzatish va so‘rovnomalar o‘tkazish, ommaviy ma’lumot vositalari);

leksik moslik me’yorlarining buzilishi (raqiblari bilan raqobatlasha oladigan iste’dodli yosh sportchilar, yuqori maxsus jismoniy chidamlilikning eng yuksak darajasi, harakat ko‘nikmalari o‘zaro harakatda bo‘lishi mumkin, mashqlar bilan mustaqil shug‘ullanishni 10-11 yoshdan o‘rgatish maqsadga muvofiq ekanligini tavsiya etiladi);

so‘zlovchining niyati bilan so‘zning hissiy va baholovchi ma’nolari o‘rtasidagi ziddiyat (asab tizimining qayishqoqligi; barkamol komillikka yetkazish);

varvarizmlardan foydalanish (eksperimentda ... maktab o‘quvchilari qatnashdi; D.N.Uznadzening ustanovka nazariyasi; sport nagruzkasini oshirish, qayta informatsiyaning ahamiyati);

turg‘un birliklarni noto‘g‘ri ishlatish (o‘quvchi o‘qituvchi va boshqa o‘quvchilar bilan o‘zaro harakatga ega bo‘lishi kerak).

3. Grammatik me’yorlar har xil so‘z turkumlariga mansub so‘zlarning grammatik shakllarini to‘g‘ri hosil qilishni talab etadi (egalik, shaxs-son, sifat darajalari, fe’l nisbatlari va boshqalar). Ularning odatiy buzilishi so‘zning mavjud bo‘lmagan yoki matnga mos bo‘lmagan shaklda ishlatilishidir (inson qobiliyatlarini jismonan va intellektyal rivojlanishi maqsadida; imkoniyati chetlanganlar uchun o‘qitish yo‘llari; yuqori darajadagi tayyorlanganlikni namoyon qilish). Ba’zan quyidagi kabi jumlalar uchraydi: ko‘rsatgichlari ortishi; texnologiyalarni to‘g‘ri va aniq qo‘llanishi, yangi variantlarni ishlab chiqgan. Bu jumlalarda ham morfologik xatolarga yo‘l qo‘yilgan – ot

yasovchi, kelishik va zamon hosil qiluvchi qo‘shimchalar noto‘g‘ri ishlatilgan.

Grammatik me’yorlar asosiy sintaktik birliklar – so‘z birikmalari va gaplarning to‘g‘ri tuzilishini belgilaydi. Bu me’yorlar gap savodli va mazmunli bayon etilishi uchun so‘zlarning grammatik shakllaridan foydalangan holda ularning birikishi va sintaktik boshqarilishi, gap qismlarining o‘zaro to‘g‘ri bog‘lanishi qoidalarini o‘z ichiga oladi. Sintaktik me’yorlarning buzilishi quyidagi misollarda mavjud:

7-8 yoshli ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiyasi; ahloqiy tarbiya – odamzod o‘z farzandini barkamol komillikka yetkazishning yaxshi yo‘llaridan biri; xalq o‘yinlarini bajarish chog‘ida bolalar harakatida ijobiy va ma’naviy fazilatlar...

4. Uslubiy me’yorlar – nutqiy vaziyatga qarab til vositalarini tanlash qoidalari. Bu me’yorlarni e’tiborsiz qoldirmaslik kerak, chunki nutq uslublari turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan va ularning har biri o‘z talablariga ega. Masalan, badiiy matn uchun obrazlilik, ilmiy matn uchun esa so‘z tanlashdagi aniqlik, sintaktik tuzilmalarning soddaligi xosdir. Uslubiy me’yorlar boshqa nutq me’yorlari bilan, masalan, yozma nutqda leksik va sintaktik, og‘zaki nutqda esa leksik va orfoepik me’yorlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Barcha uslubiy me’yorlarga rioya qilish, jumladan, so‘zlarning uslubiy bo‘yog‘ini aniqlay bilish, grammatik tahlil qilish uchun ko‘plab ko‘nikmalarga ega bo‘lish kerak. Eng tipik uslubiy xatolar:

- ilmiy ish matnida, hujjatlarda, tahliliy ilmiy maqolada uslubiy nomuvofiqlik (mamlakatimiz sportining gullab-yashnashi; O‘zbekiston nomining jaranglashi, yurtimiz bayrog‘ining yuksaklarga ko‘tarilishi qalbimizda cheksiz faxr-iftixor tuyg‘usini yanada jo‘sh urdiradi; xonadonlarda xonaki qo‘lbola sport jihozini yaratish);

- og‘ir, muvaffaqiyatsiz jumlalardan foydalanish (sportchilarni nufuzli xalqaro musobaqalarda uzluksiz natija qilishlariga mamlakatimiz tomonidan yaratilib berilayotgan imkoniyatlarning tasiri katta bo‘lsa -da, lekin eng asosiy negiz, barcha natijalarga ta’sir kuchiga ega shaxs bu murabbiyning saviyasi va saloxiyatiga borib taqaladi; nazariy bilimlar bilan amaliy harakatlarni hamoxang tarzda mashg‘ulot dasturini ishlab chiqish);

- so‘z yetishmovchiligi (shahar, tumanlarning shoh va aholi gavjum ko‘chalarida);

- so‘zlarning ortiqchaligi (Xonadondagi jismoniy mashg‘ulotlar oilaning yosh va keksa nuroniylariga birdek xizmat qilib, ayniqsa yosh bolalarni ilk yoshlikdan jismoniy mashg‘ulotlarga oshno qilib, sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishga, keksa nuroniy otaxon va onaxonlarni sog‘lig‘ini mustahkamlab, ijtimoiy faol bo‘lishlariga asos yaratiladi; to‘pni ko‘rish uchun uni ko‘rish maydonidan chiqarmaslik kerak);

- ikki ma’nolilik (o‘nlab kasbga oid fanlar bilan tanishib chiqish).

5. Orfografik me’yorlar so‘zlarni to‘g‘ri yozish qoidalari tizimidir. Ular tovushlarni harflar bilan belgilash qoidalari, so‘zlarni qo‘shib, chiziqcha bilan va alohida yozish qoidalari, bosh harflar va grafik qisqartmalardan foydalanish qoidalari, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Barcha orfografiya qoidalari bir necha tamoyillarga asoslanadi:

1) morfologik tamoyil;
2) fonetik tamoyil;
3) tarixiy-an'anaviy tamoyil;
4) shakliy tamoyil;
5) farqlash tamoyili.

1. O‘zbek orfografiyasining asosiy tamoyili – morfologik tamoyildir. Uning mohiyati: morfemalarni bir xilda yozaman. Ushbu tamoyil so‘zning har qanday ma’no anglatuvchi qismiga tegishli. Bu tamoyilga ko‘ra so‘zlar va ularning tarkibiy qismlari jonli so‘zlashuvdagi talaffuziga qarab emas, balki asl shakllariga muvofiq yoziladi. Masalan, uchala, olib borib berdi, ketyapti, g‘isht so‘zlari og‘zaki nutqda ushchala, oborberdi, ketvotti, g‘ish shaklida aytilishi mumkin, lekin morfologik tamoyilga asosan yuqoridagi tarzda yoziladi.

Morfologik tamoyil o‘zbek imlosining

yetakchi tamoyillaridan hisoblanib, imlo qoidalarining ko‘pchiligi unga asoslangan holda tuziladi. Bu tamoyil so‘z va morfemalarni yozishda bir xillikni ta’minlaydi.

Hozirgi o‘zbek imlosida morfologik tamoyil asosida yoziladigan so‘z va morfemalarga namuna sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

a) jarangli b tovushi bilan tugagan so‘zlarda bu tovush talaffuzda jarangsizlashib, p tarzida aytiladi, ammo imloda asliga ko‘ra jarangli b tovushi bilan yoziladi: kitob, maktab, javob, g‘olib, tartib, asab, targ‘ib kabilar.

b) jarangli d undoshi so‘z oxirida jarangsizlanib, t tarzida talaffuz qilinadi, lekin asliga binoan har vaqt d bilan yoziladi: savod, iqtisod, mavjud, maqsad, tanqid va boshqalar.

d) o‘tgan zamon fe’lining III shaxs ko‘rsatkichi -di, o‘rin kelishigi qo‘shimchasi -da, chiqish kelishigi qo‘shimchasi -dan jarangsiz tovush bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda -ti, -ta, -tan shaklida aytiladi: ketti, ishta, ottan kabi, biroq morfologik tamoyilga binoan har doim -di, -da, -dan tarzida yoziladi: ketdi, ishda, otdan singari.

e) og‘zaki nutqda ba’zan so‘z oxirida yonma-yon kelgan qo‘sh undoshlardan keyingisi tushirilgan holda aytiladi, ammo yozuvda saqlanadi. Masalan: do‘st, musht, juft, to‘rt, sust, rost, xursand, baland, ixlosmand.

f) So‘z o‘rtasida kelgan n undoshi o‘zidan keyingi b, m undoshlari ta’sirida m bo‘lib eshitiladi: mamba, aylamma, yombosh, tambeh, yomma-yon, ammo asli bo‘yicha doimo n bilan yoziladi: manba, aylanma, yonbosh, tanbeh, yonma-yon va boshqalar.

2. Fonetik tamoyil talaffuz qilinadigan tovushlarga mos keladigan harflarni yozishni ko‘zda tutadi. Uning mazmuni: men qanday eshitsam, qanday talaffuz qilsam, shunday yozaman. Biroq hammasi juda oddiy emas, chunki faqat shu qoidaga amal qilsak, faxr, yutuq, qilichbozlik so‘zlarini faxir, yutu:, qilichvozli shaklida yozgan bo‘lardik.

Ammo yozayotganda talaffuzga rioya qilish juda qiyin, buning ustiga hamma har xil eshitadi. Shunga qaramay, hozir ham o‘zbek tilida fonetik tamoyil qo‘llanadigan holatlar ko‘p. Biz bularning barchasini ko‘rib chiqa olmaymiz, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid matnlarda ko‘proq uchraydigan me’yordan chiqish holatlari ustida to‘xtalamiz.

Imloda fonetik tamoyilga amal qilish oxiri jarangsiz q va k undoshlari bilan tugagan so‘zlar imlosini qoidalashtirishda kuzatiladi:

a) oxiri q bilan bitgan so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda q tovushi g‘ tovushiga o‘tadi va so‘z shunday shaklda yoziladi: qayiq+im= qayig‘im, oyoq +ing= oyog‘ing, bayroq +i= bayrog‘i;

b) k undoshi bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda k undoshi jarangli g tovushiga o‘tadi. Talaffuzda ham, yozuvda ham shu holat saqlanadi: bilak +im = bilagim, yurak +i= yuragi, ilgak+i= ilgagi;

Tilimizda jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi -ga, chegara bildiruvchi -gacha, ravishdosh shaklini yasovchi -gach, -guncha, -gani, sifatdosh shaklini yasovchi -gan qo‘shimchalari k, q tovushlari bilan bitgan so‘zlarga qo‘shilib kelganda, fonetik o‘zgarishga uchraydi. Bu imloda quyidagicha aks etadi:

a) oxiri k bilan bitgan so‘zlarga qo‘shilganda qo‘shimchalarning bosh tovushi -k aytiladi va shunday yoziladi: to‘garak+ga =to‘garakka, bilakkacha, kechikkach, bukkan va hokazo;

f) so‘z oxiri q undoshi bilan tugasa, qo‘shimchalarning bosh tovushi -q aytiladi va shunday yoziladi: quloq+ga = quloqqa, oyoqqacha, chiqqach, chiniqqan va boshqalar.

3. Tarixiy-an’anaviy tamoyil. So‘z va morfemalarning yozuvda qadimdan odat bo‘lib qolgan shaklda yozilishi imloning tarixiy-an‘anaviy tamoyili deb ataladi. Bu tamoyilda so‘zlarning yagona shakli va talaffuzi e’tiborga olinmaydi. So‘zlar hozirgi holatiga qarab emas, balki qadimdan an‘ana tusiga kirib qolgan qoidalar asosida yoziladi. Masalan, fikr, vazn, sinf, ilm so‘zlari talaffuzda i tovushi orttirilgan holda aytiladi, ammo i tovushisiz yoziladi. Shuningdek, so‘z

o‘zaklarida ikki unlining qator kelishi aslida o‘zbek tiliga xos xususiyatlardan emas. Og‘zaki nutqda doim, oila, oid, doira, qoida kabi so‘zlarda ikki unli orasiga bir y undoshi orttirib talaffuz qilinadi, ammo bu xil so‘zlar imloda tarixiy an‘anaga muvofiq – y tovushisiz yozilaveradi.

4. Farqlash (differensiatsiya) tamoyiliga ko‘ra og‘zaki tilda o‘xshash, yaqin talaffuz qilinuvchi bir qator so‘zlar yozuvda shaklan farqlangan holda yoziladi. Farqlashning bir necha ko‘rinishlari bor:

a) unli tovushlarga ko‘ra farqlash: urish (fe’l) – urush (jang, muhoraba), kampaniya (ma’lum davr) – kompaniya (sheriklar, shirkat);

b) undosh tovushlarga ko‘ra farqlash: ab-zal (ot asbobi) – afzal (yaxshi), hol (ahvol) – xol (dog‘), bal (bazm) – ball (baho).

5. Etimologik yoki grafik tamoyil o‘zlashma so‘zlarning yozilishini qoida-lashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu tamoyil-ga ko‘ra o‘zlashma so‘zlar manba tilda qaysi shaklda yozilgan bo‘lsa, qabul qilu-vchi tilda ham shunday shaklda yoziladi. Rus tili va u orqali boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘z va atamalarning aksari-yati o‘zbek tilida mana shu etimologik (grafik) tamoyil asosida yoziladi: konki, kilo-gramm, futbol, basketbol, motosikl, boks, punkt kabi.

6. Punktuatsion me’yorlar - gaplarda tinish belgilarini ishlatish qoidalari yig‘indisi. Tinish vositalari yozma matnda bir sintaktik tuzilmani (yoki uning elementini) boshqasi-dan chegaralash; chap va o‘ng chega-ralarini belgilash; ularni bir butunga birlashtirish uchun zarur. Punktuatsion me’yorlarning buzilishi gap mazmunining noaniq bo‘lishiga olib keladi: Mashg‘ulotlarda jismoniy tayyorgarlik o‘tilishiga, 230-250 soatlar ajratilgan. . “Jismoniy madaniyat” – bu …. qadriyatlar, me’yorlar va bilimlar jamlanmasidan iborat bo‘lgan madaniyatning bir qismidir.

Adabiy til me’yorlarining yagona tizimi odamlarga bir-birini tushunishda yordam beradi va belgilangan qoidalarga rioya qi-lish istagi so‘zlovchi yoki yozuvchining su-hbatdoshiga, mamlakat tili, tarixi va madaniyatiga hurmatidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. T. O‘zbekiston, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/5774

3. Ўзбекистон Республикаси Президен-ти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йилли-гига бағишланган тантанали маросим-даги нутқи. Т., 2019.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari tog‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2019.06/19/5712/3034-son).

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.10.2020-yildagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

6. Ayxodjayeva M.S. O‘zbek tili. Darslik. Toshkent, 2024.

7. Ayxodjayeva M.S., Axmedova X.O. Русско-узбекский тематический сло-варь спортивных терминов. I и II части. Т., 2010-yil.

8. Валгина Н.С. Активные процессы в современном русском языке: Учебное пособие для студентов вузов. - М.: Логос, 2003. - 304 с.

9. Горбачевич К.С. Вариантность слова и языковая норма. — Л., 1978.

10. Жисмоний тарбия ва спорт муам-молари. Халқаро илмий-амалий анжу-ман материалларии тўплами. 19-20 ап-рел. Қарши, 2019.

11. Жисмоний тарбия ва спорт соҳаси-га оид янги сўз ва атамаларнинг қўлланилиши: назария ва амалиёт. Республика илмий-амалий анжумани тўплами. Т.: 2020. – 150 б.